



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG'I**

76-son
4-iyul 2025-yil

Organik va organik-mineral o'g'itlar xavfsizligi to'g'risida texnik reglament talablariga rioya etilishi ixtiyoriy ta'minlanadigan hamda reglamentda belgilangan mahsulotning muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lgan namunalar olish, sinash va o'lchash usullarini belgilovchi standartlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-iyuldagagi 370-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to'g'risida Nizomga muvofiq,

B U Y U R A M A N

1. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-yanvardagi Organik va organik-mineral o'g'itlar xavfsizligi bo'yicha qo'shimcha talablar belgilanganligi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Organik mahsulotlar va xom ashyolar hamda organik-mineral o'g'itlarning xavfsizligiga doir ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 18-noyabrdagi 729-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida 9-son qarori va qaror bilan tasdiqlangan "Organik va organik-mineral o'g'itlar xavfsizligi to'g'risida" texnik reglament (keyingi o'rnlarda – reglament) ijro va ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Reglament talablariga rioya etilishi ixtiyoriy ta'minlanadigan standartlar ro'yxati 1-ilova;

Reglamentda belgilangan talablarni qo'llash va bajarish hamda mahsulotning muvofiqligini baholash (tasdiqlash) uchun zarur bo'lgan namunalar olish, sinash va o'lchash usullarini belgilovchi standartlar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. "O'zbekiston standartlar instituti" DM (A.Abdukayumov) ilovalarda keltirilgan standartlarni tegishli texnik qo'mitalar bilan birgalikda xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirib borish choralarini ko'rsin.

4. Raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash boshqarmasi (F. Usmanov) va Texnik reglamentlar va standartlar bo'yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasi (D.Xodjikariyev) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan standartlar ro'yxatini 3 kunlik muddatda O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining rasmiy veb saytiga joylashtirsin.

5. Ijro nazorati, murojaatlar bilan ishlash va devonxona bo'limi (Z.Gafurov) mazkur buyruq 2 kunlik muddatda tizim tashkilotlariiga ma'lumot va tegishliligi bo'yicha ijro uchun yuborsin.

6. Ushbu buyruq ijrosi ustidan nazorat direktorning birinchi o'rinnbosari A. Zakirov zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



A. Jumanazarov

Texnik jihatdan tartibga solish
agentligining 2025-yil 4-iyuldagى
76-sonlibuyrug‘iga
1-ilova

**“Organik va organik-mineral o‘g‘itlar xavfsizligi to‘g‘risida” texnik reglamenti
kuchga kirishi bilan ushbu texnik reglament talablariga rioya etilishi ixtiyoriy
ta’minlanadigan standartlarro‘yxati**

T/r	Texnik reglamentning tarkibiy elementi	Belgilanish	Nomlanishi	izoh
1.	1 ва 6-боб	ГОСТ 33380-2015	Эффлюент. Технические условия	
2.		ГОСТ 33830-2016	Удобрения органические на основе отходов животноводства. Технические условия	
3.		ГОСТ 34102-2017	Удобрения органические на основе органогенных отходов растениеводства и предприятий, перерабатывающих растениеводческую продукцию. Технические условия.	
4.		O‘z DSt 3462:2020	Гумусовые удобрения на основе торфа. Технические условия	
5.		ГОСТ Р 54000-2010	Удобрения органические. Сапропели. Общие технические условия	
6.		ГОСТ Р 50611-93	Удобрения комплексные органоминеральные. Технические условия	